

YOSH OILALARDA ERTA AJRIMLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH MEXANIZMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18159201>

Mirzarahimova Mubinabonu Botir qizi

*Qo'qon universiteti Andijon filiali,
"Psixologiya" yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqola jamiyatda asosiy bo'g'ini sanalgan oil avaa unda yuz beradigan nizolar, munosabatlardagi tanazzul hamda erta ajrimlarga sabab bo'layotgan omillar va bu ajrimlarning sonini kamaytirish yo'llari yuzasidan fikr va mulohazalar bayon etilgan. Erta nikohni oldini olish va oila munosabatlarini barqarorlashtirish, oilaviy nizolarni kamaytirish, oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar

oila, oilaviy nizolar, oilaviy ajrim, erta nikoh, deviant xulq, oila barqarorligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy munosabatlar.

Аннотация

В данной статье изложены мнения и соображения относительно семьи, которая считается основным звеном в обществе, конфликтов, возникающих в ней, деградации отношений и факторов, вызывающих ранние разводы, а также способов сокращения числа этих разводов. Рассмотрены такие вопросы, как предотвращение ранних браков и стабилизация семейных отношений, снижение семейных конфликтов, развитие систем семейной поддержки.

Ключевые слова

семья, семейные конфликты, семейный развод, ранний брак, девиантное поведение, стабильность семьи, социальная поддержка, семейные отношения.

Annotation

This article presents opinions and considerations regarding the family, which is considered the main link in society, conflicts occurring within it, the decline in relationships, factors causing early divorces, and ways to reduce the number of such divorces. Issues such as preventing early marriages and stabilizing family relations, reducing family conflicts, and developing family support systems were considered.

Keywords

family, family conflicts, family divorce, early marriage, deviant behavior, family stability, social support, family relations.

Oila jamiyatning eng asosiy va muhim instituti bo'lib, uning barqarorligi va mustahkamligi ijtimoiy rivojlanish, inson kapitali va milliy qadriyatlarni saqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Oila – bu mehr, ishonch va qo'llab-quvvatlash maskani. Oilada ota-ona farzandlariga tarbiya beradi, ularni hayotga tayyorlaydi[1]. Farzandlar esa ota-onani hurmat qilib, oilaning baxti va kelajagi uchun harakat qilishadi. Oila a'zolari bir-biriga yordam berib, quvonch va qiyinchiliklarni birga yengishadi. Shuning uchun oila inson hayotidagi eng muhim qadriyatlardan biridir.

So'nggi yillarda oilaviy ajrimlar sonining ortishi nafaqat yurtimizda global darajadagi muammo sifatida e'tiborga olinmoqda. Oilaviy ajrimlarning ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy oqibatlari bolalar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, jamiyatning umumiy barqarorligiga ham jiddiy ta'sir etadi. Oiladagi ajrimga olib kelayotgan sabablarni aniqlash – oilaviy ajrimlarning oldini olishda samarali vosita sifatida ko'riladi. Mazkur yondashuv doirasida oilalarga psixologik ko'mak ko'rsatish, nizolarni konstruktiv yo'l bilan hal etishga qaratilgan oilaviy maslahatlar berish hamda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amalga oshiriladi. Shu bilan birga, oilalardagi nizolarni kamaytirish, oilaviy barqarorlikni ta'minlash va kelajak avlodning tarbiyaviy muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Oilaviy munosabatlar sifatli va mustahkam bo'lganda, farzandlar o'zlarini himoyalangan, mehribon va qo'llab-quvvatlangan muhitda his qiladilar, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi[2]. Shu bilan birga, globalizatsiya jarayonlari, iqtisodiy qiyinchiliklar, axborot texnologiyalari ta'siri va zamonaviy ijtimoiy muhit oilalar oldida yangi sinovlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada, oilalarda nizolar, tushunmovchiliklar va ayrim hollarda ajrimlar soni ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shuni ham takidlab o'tish joizki erta nikoh, oila qurushga psixologik tayyor bo'lmaslik yo bo'lmasam oilada deviant xulqning mavjudligi ham juda ko'p ajrimlarga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ajrimlar faqat oilaning o'zigagina zarar yetkazib qolmay, balki jamiyatning ijtimoiy va psixologik barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ajrimlarning oldini olish va oilaviy institutni mustahkamlash masalalari nafaqat oilaviy, butun bir jamiyatni muammosi sifatida ham dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda psixologik maslahatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari va innovatsion ta'lim-uslubiy yondashuvlar oilalarni mustahkamlashda samarali vosita sifatida tan olinmoqda.

Yosh oilalarning mustaqilligini ta'minlash, qaynona, qaynota hamda boshqa uchinchi shaxslarning oilaviy hayotga asossiz aralashuvining oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu oilada sog'lom muhitni shakllantirish, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat va mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 3-moddasida keltirilgan "oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmasligi" bandining amalida ham o'rinli qo'llanishi balki bu muammolarga salmoqli yechim berar[3].

So'nggi vaqtlarda yangi tuzilayotgan oilalarda ikki tomon ham bir-birining kelib chiqishini o'rganib, sovchilik instituti orqali mos yoshlarning turmush qurishiga ahamiyat qaratilmoqda. Shunga qaramay, hozirgi kunda FHDYO organlari qoshida tashkil etilgan Oila dorilfununlarida yoshlar bir oylik o'quv kurslarida qatnashayotgan bo'lsalarda, ajrimlar soni hanuz kamaymayapti. Shu o'rinda aytish joizki, 18-20 yil oilada singdirilmagan ko'nikmalar 1 oy davomida tushuntirilishining imkoni yo'q. Shuning uchun har bir farzandni ota-onalari yoshlik davrlaridan katta hayotga tarbiyalab, zarur ko'nikmalarni berib borsa, namunali oila bo'lib ularga o'nak bo'lsa vaziyat ancha ijobiy tarafga o'zgaradi[4].

Oilaviy ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar xaqida fikr yuritganda, eng avvalo er va xotin nega ajrashishni xohlayotganini va bunga arziydigan sababning mavjudligi yuzasidan chuqurroq muloxaza qilishlari lozim. Garchi juftliklar bir-biriga mos bo'lsa ham, ularning munosabatlaridagi muommolar mavjud bo'ladi[1]. Agar er-xotin munosabati muommoli nuqtaga kelib qolgan bo'lsa, uni faqat o'zlarigina hal qilishlari mumkin. Munosabatlarni qayta tiklash uchun sabr-toqat, birdamlik bilan uzoq va samarali hayot sinovlariga tayyor bo'lishi muhim hisoblanadi.

Oilaviy ajrimlarga turtki bo'layotgan omillarni ko'rib chiqamiz.

Psixologik sabablar:

- temperament va xarakterning bir-biriga to'g'ri kelmasligi;
- intellektual salohiyat va dunyoqarashning turtiligi;
- konflikt menejmenti bilimlarning sustligi;
- rashq xissiyoti;
- erta turmush;
- virtual tobelik;
- jinsiy ojizlik.

Ijtimoiy sabablar:

- er va hotinning ijtimoiy kelib chiqichdagi farqlar;
- ota-ona, qaynona-kelin va qo'ni - qo'shnilar roli;
- er-hotin yoshidagi farqning yuqoriligi;
- farzandsizlik;

- ko'photinlik va oiladagi maishiy muommolar;
- migratsiya;
- din omili;
- farzand tarbiyasidagi o'zaro kelishmovchilik.

Iqtisodiy omillar:

- iqtisodiy tabaqalanish kesimidagi moliyaviy nomutanosiblik;
- ishsizlik;
- oilaviy byudjetning tartibga solinmagani;
- moddiy yetishmovchiliklar.

Kriminal omillar:

- jinoyat olamiga kirib qolish;
- oilaviy zo'ravonlik;
- zo'rlik, urish, xaqorat qilish;
- soxta nikoh;
- alkogolizm;
- narkomaniya.

Yosh oilalarda ajrim sonini kamaytirish profilaktikasi va mexanizmlari.

Ta'lim va targ'ibot:

- nikohlanuvchi yoshlar uchun tayyorgarlik kurslari: oilaviy munosabatlar, konfliktlarni hal qilish, moliyaviy mas'uliyat, psixologik tayyorgarlik bo'yicha treninglar;

- huquqiy bilimlarni oshirish: nikoh, mehnat, mol-mulk va farzandlar huquqlari bo'yicha tushuntirishlar;

- ma'naviy va axloqiy tarbiya: oilaviy qadriyatlarni, hurmat va o'zaro mas'uliyatni targ'ib qilish.

Oilaviy maslahat va qo'llab-quvvatlash:

- psixologik va pedagogik maslahatlar: yosh er-xotinning muammolarini erta aniqlash va hal qilish;

- oilaviy mediatorlik: nizolar yuzaga kelganda mustaqil mediatorlar orqali sulh va kelishuvga erishish;

- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: moliyaviy qiyinchiliklar yoki stress holatlarida yordam ko'rsatish.

Jamiyat va davlat mexanizmlari:

- FHDYO organlari va Oila dorilfununlari: yoshlarni tayyorlash va maslahat berish markazlari sifatida faoliyat yuritishi.

- sovchilik instituti va oilalarni tanlash tizimi: oilalar mosligi va uyg'unligini oshirishga xizmat qiladi.

- huquqiy nazorat va yordam: oilaviy nizolar va ajrimlar holatlarida tezkor huquqiy yordam.

Oila ichidagi mexanizmlar:

- o'zaro hurmat va muloqot: er-xotin orasidagi muammolarni ochiq va samimiy muhokama qilish.

- bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash: hissiy va moddiy qo'llab-quvvatlash.

- farzand tarbiyasi va umumiy maqsadlar: birgalikda qaror qabul qilish va tarbiyaviy qadriyatlarini shakllantirish.

Profilaktik mexanizmlar:

- ajrimni oldini olish dasturlari: yosh oilalarga stress, moliya va konfliktlarni boshqarish bo'yicha treninglar.

- jamoat tadbirlari: oilaviy madaniyatni targ'ib qiluvchi seminarlar, sport va madaniy tadbirlar orqali oilalar mustahkamligini oshirish.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oilalarning mustahkamligi jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Oilaviy nizolar va ularning oqibatida yuzaga keladigan ajrashishlar faqat oilaning muammosi emas, balki butun jamiyat uchun muammo hisoblanadi. Shu bois, ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy, axloqiy, psixologik-pedagogik va fiziologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, oilalarni mustahkamlash va ularning barqarorligini ta'minlash, farzand tarbiyasi bo'yicha ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatish muhimdir. Oilalarda o'zaro tushunish, hurmat va sevgi mavjud bo'lsa, ajrashishlar kamayadi va farzandlar yetim qolish xavfi kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ОИЛА ПСИХОЛОГИЯСИ: Дарслик. Педагогика олийгоҳдари талабалари учун // Муаллиф: В.М.Каримова. - Т.: "Fan va texnologiya", 2008. - 142 б.

2. "Оила ва никоҳ диапазонида ижтимоий роллар тақсимотини ўрганувчи психологик методикалар таҳлили", Муаллиф: ЖАЛОЛОВА Моҳигул Одилжон қизи, PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 2024, № 7, 100-b.

3. [https://buxgalter.uz/uz/doc?id=28095_o'zbekiston_respublikasining_oila_kodeksi_\(o'zr_30_04_1998_y_607-i-son_qonuni_bilan_tasdiqlangan\)&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://buxgalter.uz/uz/doc?id=28095_o'zbekiston_respublikasining_oila_kodeksi_(o'zr_30_04_1998_y_607-i-son_qonuni_bilan_tasdiqlangan)&prodid=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)

4. <https://oila-ilmiy.uz/>